



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,  
27-aprel, 2026-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<b>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	16
<b>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</b>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов .....	19
<b>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</b>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<b>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</b>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi .....	29
<b>Sattarov Farrux Nuridinovich</b>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish .....	35
<b>D. K. Ibadullayev</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	41
<b>Isabekova Dilafuz Shermirzayevna</b>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<b>Юсупова Элеонора Фердинандовна</b>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik .....	51
<b>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<b>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</b>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) .....	60
<b>M. D. Boynazarova</b>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки .....	63
<b>Нормуратов Абдулла Саппарович</b>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<b>Normuratov Abdulla Sapparovich</b>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari .....	70
<b>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</b>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<b>Omonova Charos Baxodir qizi</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<b>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</b>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<b>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</b>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida .....	91
<b>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</b>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<b>Abdumannan Maxammatov</b>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi” .....	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati .....	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi .....	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness .....	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi .....	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri .....	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari .....	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari .....	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari .....	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari .....	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati .....	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish .....	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari .....	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimurning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari .....	198
<a href="#">Salomov Abdurasul Axmadovich</a>	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi .....	201
<a href="#">Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
<a href="#">Sojida Safarova Saxadin qizi</a>	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
<a href="#">Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</a>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	210
<a href="#">Xoldorova Mashxura G'ulomovna</a>	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов .....	214
<a href="#">Нурбаев Бахтиёр Широнович</a>	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
<a href="#">To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</a>	

# KOMMUNIKATIV STRATEGIYANING YUZAGA KELISH OMILLARI

Normaxmatova Feruza Ruziboyevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari haqida fikr yuritiladi. Kommunikativ strategiyaning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy muhit, til tizimi, kommunikatsiya ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar, nutq vaziyatining o'ziga xosligi, auditoriya va maqsad kabi omillarning ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, kommunikativ strategiyani tanlash va shakllantirish jarayonida shaxsning til madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi hamda ma'naviy-intellektual salohiyati asosiy omillardan biri ekani asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ strategiya, kommunikatsiya, nutq vaziyati, til madaniyati, kommunikativ kompetensiya, auditoriya, omillar.

**Abstract:** This article discusses the factors contributing to the emergence of a communicative strategy. The influence of such factors as the socio-cultural environment, the language system, relationships between communication participants, the specificity of the speech situation, the audience, and the purpose on the formation of a communicative strategy is analyzed. It is also argued that language culture, communicative competence, and an individual's spiritual and intellectual potential are among the main factors in the process of selecting and forming a communicative strategy.

**Key words:** communicative strategy, communication, speech situation, language culture, communicative competence, audience, factors.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются факторы формирования коммуникативной стратегии. Анализируется влияние таких факторов, как социокультурная среда, языковая система, взаимоотношения между участниками коммуникации, специфика речевой ситуации, аудитория и цель, на формирование коммуникативной стратегии. Также обосновывается, что языковая культура, коммуникативная компетентность и духовно-интеллектуальный потенциал личности являются одними из основных факторов в процессе выбора и формирования коммуникативной стратегии.

**Ключевые слова:** коммуникативная стратегия, коммуникация, речевая ситуация, языковая культура, коммуникативная компетентность, аудитория, факторы.

## KIRISH

Ma'lumki, insonning jamiyatdagi faoliyati ma'lum ijtimoiy tajribaga asos bo'ladi. Bu uning lisoniy olam qiyofasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida faqat unga xos bo'lgan ijobiy fazilatlar, shuningdek, o'ziga xos nuqsonlari ham ma'lum muloqot vaziyatida ro'yobga chiqadi. Qayd etish joizki, olib borilayotgan muloqotning asosiy vazifasi muloqotdoshlarning bir-birlarini tushunishlari uchun qo'llaniladigan lisoniy vositalar tanlovi hamda o'zaro hamkorlikni yuzaga keltiradigan muloqot mavzusini tanlashdan iborat. Mazkur jihat pragmatik yondashuvda amalga oshirilganligi sababli, axborot almashish va o'zaro ta'sir tilning eng muhim funksiyalaridan biri sifatida muloqotning barcha shakllari va usullarida mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisalarni qamrab oladi (Safarov, 2018; 133).

Bevosita pragmatik mazmun haqida gapiradigan bo'lsak, u ma'lum nutq vaziyatida yetkazilgan axborotning tinglovchiga bo'lgan ta'siri hamda uning munosabatini o'rganadi. Ko'rinadiki, pragmatika muloqot jarayonida sodir etilgan axborot almashinuvdagi lisoniy vositalarning vazifalarini o'rganadi. Shunday qilib, axborotning tinglovchi tomonidan to'g'ri anglashilishi uchun so'zlashuvchilarning lisoniy ko'nikma va bilimlaridan tashqari, tinglovchining olam haqidagi bilimi, ijtimoiy vaziyat borasidagi qarashlari, muloqot jarayonidagi muhit, suhbatdoshlarning ruhiy holati, muloqot mavzusi va unga oid bilimlari, axborot almashuvchilarning emotsional-psixik holati kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aleksey Vdovichenko ta'kidlaganidek, amaliy kommunikativ jarayonda muloqotdoshlar alohida so'zlarga e'tibor qaratmaydi, ammo uni muloqot strukturasi verbal ko'rinishi sifatida qabul qiladi [Вдовиченко А.В., 2007; 244].

Muloqot jarayonida yetkazilayotgan ma'lumotni tushunish yuqorida keltirilgan omillarning o'zaro uyg'un va muvozanatli taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Chunki muloqotning samarali kechishi, muloqot strategiyasining to'liq amalga oshirilishi uchun ushbu jihatlar muhim sanaladi. Bu omillar muloqot maqsadini belgilash va ma'lum kommunikativ strategik vazifalarni bajarishda asosiy rolni bajaradi. Nutq strategiyasi tadqiqotchilar tomonidan so'zlovchining intensiyasiga bog'liq xulq-atvori, nutq vaziyatidagi kommunikantlarning ma'lum maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan nutqiy ifodalari sifatida talqin qilinadi [Борисова И.Н., 1996; 21-48].

Taniqli tilshunos Teun A. van Dijk esa nutqiy strategiyani "tahlil uchun olingan har bir vaziyat uchun qo'llaniladigan umumiy instruksiya" (van Dijk, 1989; 274) sifatida baholaydi. Ma'lum strategiyaning qo'llanilishi so'zlovchining shaxsiy maqsadlari, shuningdek, umumiy ijtimoiy maqsadlarga asoslanadi.

Olimning ta'kidlashicha, ma'lum vaziyatda nutqiy ifodaning ma'lum yo'nalishda kechishi so'zlovchining aniq maqsadiga ta'sir etishi mumkin. Albatta, dastavval lison muloqot vositasi vazifasini bajaruvchi hodisa sifatida baholanadi. Mazkur muloqotning qurilishi esa so'z va so'zlarning grammatik shakllangan hamda ma'lum maqsad tomon yo'naltirilgan nutq omillari bilan belgilanadi. Ta'kidlash joizki, har qanday so'z ma'lumot bo'lib, inson o'z faoliyati davomida to'plangan tajribalariga asoslangan holda uni yetkazadi. Ma'lumot almashinuvi jarayoni verbal va noverbal (turli imo-ishoralar, emotsional harakatlar) tarzda namoyon bo'ladi. Ma'lumot, o'z navbatida, olingan bilim va uning asosiga, bilimlarning nutq faoliyatida qo'llanilishiga bog'liq. Shu sabab, nutq jarayonida ma'lumot almashish uchun turli harakatlar amalga oshiriladi. Jumladan, tovushlarni talaffuz qilish orqali ma'lumotni ifodalash, tasvirlash orqali yetkazish, imo-ishoralar yordamida ifodalash, emotsional harakatlar orqali yetkazish kabilari muhim o'rin tutadi.

Bularning barchasi nazariy jihatdan nutq aktlari, ya'ni nutq jarayonida bajariladigan pragma-semantik mazmun kasb etadi hamda ma'lum kommunikativ strategiyaga asoslanadi. Ammo nutqiy strategiyani muloqot vaziyatiga moslashtirish zarur. Muloqot vaziyatlarining o'zgaruvchanligi, turli mavzuda kechishi, muloqotdoshlarning vaziyatga yondashuvi kabi xususiyatlar nutqiy jarayonni shakllantiradi. Nutqiy faoliyat, o'z navbatida, nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni to'liq egallashni taqozo etadigan hodisa hisoblanadi [Боймуродова, 2022].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muloqot jarayonida ma'lum kommunikativ strategiya yoki taktikani amalga oshirishda milliy madaniyat va nutqiy etiketdan xabardor bo'lish ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda samarali bo'lishi mumkin. Bu so'zlovchi tomonidan ko'zlangan strategiyadan foydalanish uchun nutq vaziyatiga mos tarzda muhim fikrlarni bayon qilish, lo'nda ta'sirchanlik, lisoniy birliklarni tanlash, emotiv vositalarni qo'llash orqali o'z hissiyatini muloqotdoshga ko'rsatish, kuzatuvchanlik va ziyraklik orqali muloqotdoshning e'tiborini bir maromda ushlab turish kabilarni talab etadi. Nutq vaziyatiga, muloqotdosh qiziqishlari va dunyoqarashlariga hamda mavzuga mos keladigan so'z yoki iboralarni tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko'nikmalar nutqiy faoliyatning tarkibiy qismlaridan sanaladi. Ba'zan haddan ortiq jimjimador va muloqot mavzusi mazmunidan yiroqroq bo'lgan nutq hamda iboralar mohiyatan har doim ham samara bermasligi mumkin. Chunki nutqning ta'siri uning strategik mohiyati va taktikasi bilan belgilanadi.

So'zlovchi o'z nutqining samarasini ta'minlovchi omillar qatoriga bilimi, saviyasi, dunyoqarashi, tajribasi va malakasidan tashqari emotiv munosabati ham muhim o'rin tutadi. Bunday vaziyatda kommunikativ strategiya emotsiya bilan uyg'unlashadi va kommunikativ taktikani mujassam etadi. Bu kabi amallar muloqot jarayonida qo'llangan kommunikativ strategiyalar orqali adresantning yakuniy obrazini yaratadi. Kommunikativ strategiyaning faollashishida, qayd etganimizdek, qo'shimcha emotiv munosabatlarning alohida o'rni mavjud. Biroq emotiv munosabat mustaqil kommunikativ strategiya hisoblanmaydi va kommunikativ strategiyaning manipulyativ turiga kiritiladi. Emotiv munosabat ta'siri manipulyativ harakatlarda namoyon bo'ladi. Kommunikatsiya jarayonidagi emotiv harakatlar muloqotdoshning reaksiya harakatini yuzaga keltiradi. Bu esa strategiyaning muhim bosqichi sanaladi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, emotivlikning semantik tarkibi manipulyativ kommunikativ jarayon ichida amal qiladi, emotivlik muloqot rivojiga katta ta'sir ko'rsatishi yoki uni mutlaqo boshqa yo'nalishda rivojlantirishi mumkin. Masalan: "– Tur! Bu qanaqa ahmoqlik? ... Sen hali ham bolishdan boshingni uzmapsan. Ahmoq!" (Said Ahmad, Qirq besh kun, 9-bet); "Bolam, tura qolgin. Jon bolam, kun yoyilib ketdi. Tura qol, jon bolam, onaginam o'rgilsin! Dadang nonushta qilmay ishga chiqib ketgan-a. Turgin!" (Said Ahmad, Qirq besh kun, 12-bet).

Keltirilgan misollarda “bolani uyg‘otish” strategiyasi ikki xil usulda amalga oshirilgan. Birinchi misolda sof manipulyativ emotsional lisoniy vositalardan foydalanilgan bo‘lsa, keyingi misolda hushmuomalalik strategiyasi faollashgan.

Kommunikativ strategiyaning konseptual kommunikativ faoliyatida emotsiyani qo‘llash ko‘pgina hollarda muloqotdoshga teskari ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Bunday vaziyatda u muloqot muhitini turli tomonga o‘zgartirish kuchiga ega hisoblanadi. Mazkur holat lisoniy shaxsning muloqot strategiyasini amalga oshira olmasligiga, maqsadning ro‘yobga chiqmasligiga olib kelishi mumkin. Masalan: “– Yomon niyating bo‘lmasa, qora saharda devor osharmiding? Nima, xumor bo‘lib nos so‘raganingdan devor oshganmiding? Nos so‘rab ko‘rpa qatini ko‘targanmiding?” “Uning telba-teskari javoblaridan atrofdagi ermaktalablar hiring-hiring kulishardi” (Said Ahmad, Qirq besh kun, 20-bet).

Kommunikativ strategiyaning emotivlik muhitida muloqot jarayoniga, kechimiga bog‘liq tarzda kechishi borasida E. V. Klyuevning quyidagi fikri o‘rinli deb hisoblaymiz: “muloqot jarayonida kommunikativ maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan nazariy va amaliy yurishlar, oldindan rejalashtirilgan va muloqot kechida amalga oshiriladigan harakatlarning umumiy ko‘rinishi”ni (Klyuev, 1998; 68) aks ettirishi orqaligina ma‘lum natijaga erishish mumkin.

Muloqot jarayonida u yoki bu strategiyadan foydalanish so‘zlovchi va muloqotdoshning aniq intensiyasiga qarab tanlanadi. Shuning uchun ham muloqot jarayonida ma‘lum yo‘nalishning tanlanishi muloqotdoshlarning maqsadlariga mos kelishiga bog‘liq. Masalan: “– Menga qara, baraka topkur. Tinch qo‘ygin. Jon uka, tinch qo‘ygin. Bizni sharmanda qilma! Ko‘cha-ko‘yda qaydoq bosh ko‘tarib yuraman. Yo ko‘chib ketaymi?” (Said Ahmad, Qirq besh kun, 23-bet) Nutq vaziyati, kommunikativ muhitni e‘tiborga olgan holda asosiy kommunikativ strategiyalarning ikkita xususiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) o‘zaro kommunikativ hamkorlik bosqichida amalga oshiriladigan, ma‘lum maqsadlarni hal qilishga mo‘ljallangan hamda motivlar va maqsadlar doirasida muloqotdoshlarning qarashlari mosligi;
- 2) tinglovchining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va xatti-harakatlari (jismoniy va intellektual) ustidan ta‘sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muloqot kechimi.

Yordamchi strategiyalar tinglovchining interfaolligini, nutqning samaradorligini va muloqot ahamiyatini oshirish uchun xizmat qiladi, optimal ta‘sir ko‘rsatishga yordam beradi. O. S. Issers ularni uch toifaga ajratadi: pragmatik (kommunikativ-vaziyatli), dialogik va ritorik. Birinchi kategoriya obrazni yaratish, hissiy holatni shakllantirishga mas‘ul sanalsa, dialogik strategiya muloqot jarayonida mavzuni monitoring qilish, tashabbuskorlikda va muloqot jarayonini tushunish darajasini aniqlashda foydalaniladi. Ritorik strategiya adresatga ta‘sir etuvchi notiqlik san‘ati va ritorik texnikaning turli usullarini qo‘llashni taklif qiladi (Issers, 1999; 182).

V. S. Anoxina kommunikativ strategiyani bevosita pragmatik hodisa sifatida, ma‘lum vaziyatda muloqot maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan nutqiy akt sifatida baholaydi (Anoxina, 2008; 66).

Konvensional kommunikativ strategiyaning maqsadi turli xil kommunikativ segmentlarga matn yoki nutq tinglovchilari (masalan, fuqarolik jamiyati, agar nutq siyosiy konsultatsiya haqida bo‘lsa) uchun muloqot jarayonini yaratib berish va butun bir konsensus zanjiri orqali konvensiya natijasini olish, ya‘ni muayyan bir segment ichidagi mavjud shartnoma yoki butun bir jamiyatni qamrab oluvchi, bir tomondan mutlaqo amaliy vazifalarni amalga oshirish (loyihani amalga oshirish), boshqa tomondan esa kommunikativ muhitning ayrim tuzilmalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu kelgusida an‘anaviy muloqot jarayonini qayta tiklashga va manipulyativ muloqot strategiyalariga qarshi turishga imkon beradi.

Konvensional kommunikativ strategiya o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta bosqichda taqdim etilishi mumkin; bu bosqichlar matnning yaratilishi, taqdimot, global (ommaviy) konsultatsiya, ya‘ni muzokara (deliberativ) jarayonlari deb nomlanadi (Leech, 1983; 43).

Kommunikativ strategiya umumiy ma‘noda bu nafaqat muloqot mahsuloti, balki muloqotning maqsadini amalga oshirishga yo‘naltirilgan lingvistik va lingvistik bo‘lmagan vositalar bilan ifodalanadigan muloqotni shakllantirish jarayonidir.

M. L. Makarov kommunikativ strategiyani notiqning aniq bir muloqot jarayonidagi bir usul yoki xatti-harakati bilan aniqlanadigan, muloqot jarayonida umumiy maqsadlarga erishish uchun asosan global (ba‘zan bir qator xususiy) maqsadlarga erishish rejasi bilan bog‘liq, deb ta‘kidlaydi (Makarov, 2003; 47).

O. A. Leontovich ham xuddi shunday fikrni bildirgan, ya‘ni kommunikativ strategiyani to‘g‘ri tanlay bilish nutq jarayonining muvaffaqiyatini yoki muvaffaqiyatsizligini ko‘rsatishi mumkin (Leontovich, 2000; 117).

Kommunikativ strategiyaning muvaffaqiyatli kechimi kontekstni to‘g‘ri shakllantirishga bog‘liq. Kontekstning shakllantirilishi ma‘nolarning ko‘chirilishi, polisemiya, metafora va metonimiyaning ishlatilishiga tayanadi. Ijtimoiy diskursning semantik tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan metafora tasviriy vosita sifatida har bir diskursda keng qo‘llaniladigan hodisa bo‘lish bilan bir qatorda kognitiv faoliyatning mahsuli sanaladi. “Metafora hosila ma‘no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma‘no yuzaga



kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi". Masalan: "– Menga nojo'ya gap aytdingiz, kuyov. Agar boshqa odam shu gapni aytganda, ichagini boshiga salla qilib qo'yardim. Singlim boshimni egib ketdi. Ammo men yigitlik belbog'imni boshimga solganim yo'q. Qayting orqaga. Kiring ichkariga. To'y tarqamaydi. Otam meni o'g'il bola qilib tug'dirgan." (Said Ahmad, Qirq besh kun, 27-bet)

P. S. Pustavalov va M. P. Senkevichning ta'kidlashicha, publitsistik uslub o'z oldiga nafaqat ma'lum hodisalarni muloqotdoshga tez va qulay yetkazishni, balki ayni paytning o'zida tinglovchiga ta'sir qilishni, tavsiyalarini narsaga muloqotdoshda ma'lum munosabatni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi (Pustavalov V. S., Senkevich M. P., 1987; 29).

## XULOSA

Kommunikativ strategiya har qanday ijtimoiy faoliyatning alohida va maxsus muammoni hal etishda qo'llaniladigan vositalaridan sanaladi. Nutq aktlari doirasida strategiyaning ishlatilishi muloqotni maqsadga muvofiq tashkil qilishning bir usuli hisoblanadi. Keng ma'noda kommunikativ strategiya muloqotning samarali kechishini ta'minlashga xizmat qiluvchi eng muhim vazifa sifatida tushuniladi. Ma'lum hodisa adresantning amaliy maqsadlari bilan belgilanadi. Ma'lum ma'noda kommunikativ strategiyalar jamiyat tomonidan tasdiqlangan ijtimoiy, milliy-madaniy va lisoniy modellarni aks ettiradi. Ular lisoniy shaxsning bilim darajasini, og'zaki nutqni pragmatik mazmun bilan bog'laydigan vositachi lisoniy hodisa sifatida talqin etilishi mumkin. Masalan: "– Xotin, u so'kmadi, sen eshitmading. Unga oson tutib bo'lmaydi. Nima desa, shundaymiz-da. Boshqa ilojimiz yo'q. Hamma la'nat sen bilan menga keladi. Hali bu gap qishloqma-qishloq, og'izma-og'iz yoyilib, semirib tarqaydi. Butun Farg'onaga doston bo'ldik." (Said Ahmad, Qirq besh kun, 35-bet).

Tilshunos olimlarning kommunikativ strategiya nazariyalari doirasida vualirovaniya, mistifikatsiya, anonimlashuv yoki depersonalizatsiya, reifikatsiya, delegitimatatsiya, diskreditatsiya, amalgamatatsiya strategiyalari kabi turlari o'rganilib chiqilgan (Gumpers, 1982; 77).

Shunday qilib, har qanday kommunikativ strategiya va taktikalarni qo'llay bilish ma'lum ma'noda keng lug'at boyligi, kognitiv bilim hamda turli stilistik vositalardan samarali foydalanishni talab etadi. Bu kommunikativ maqsadni ro'yobga chiqaruvchi eng asosiy tarkibiy vositalar sanaladi. Kommunikativ strategiyaning samarali yoki samarasiz natijasi so'zlovchining lisoniy imkoniyatlardan unumli foydalanish layoqati, nutqiy aktlarni qo'llash darajasi, shuningdek, tilning ekspressiv, stilistik va obrazli imkoniyatlari hamda noverbal yordamchi vositalarni tanlash mahorati bilan belgilanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анохина В.С. Стратегии и тактики коммуникативного поведения в малой социальной группе (семье) // Вестник Ставропольского государственного университета. – 2008. – № 56. – С. 64-71.
2. Вдовиченко А.В. Критическая ретроспектива лингвистического знания. Расставание с "языком". Монография. – М.: Издательство Православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета, 2007. – 510 с.
3. Борисова И.Н. Дискурсивные стратегии в разговорном диалоге // Русская разговорная речь как явление городской культуры. – Екатеринбург, 1996. – С. 21-48.
4. Боймурадова Л. Нутқий стратегиянинг прагматик ва лингвомаданий асослари (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида). Фил. фан. фалсафа док. автореф. – Термиз, 2022. – 56 б.
5. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – 307 с.
6. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – Омск: Изд-во Омск. гос. ун-та, 1999. – 284 с.
7. Ключев Е.В. Речевая коммуникация. Успешность речевого общения. – М.: РИПОЛ КЛАССИК, 2002. – 320 с.
8. Леонтович О.А. Проблемы виртуального общения. – 2000. <http://www.irex.ru/press/pub/polemika/07/leo/>
9. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК "Гнозис", 2003. – 280 с.
10. Пустовалов В.С., Сенкевич М.П. Пособие по развитию речи. – М., 1987. – 302 с.
11. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. – 300 б.
12. Gumpers J.J. Discourse strategies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982.
13. Leech G.N. Principles of pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.